

# "O`zkimyosanoat" AJ va "Navoiyazot" AJlarning RASMIY BAYONOTI

// 04 November 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-va-navoiyazot-ajlarning-rasmiy-bayonoti>



Bugun OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Navoiyazot" AJ hududida itlarning otib ketilishi bo`yicha ma`lumotlar e`lon qilindi. Holat yuzasidan "O`zkimyosanoat" AJ va "Navoiyazot" AJlar quyidagilarni ma`lum qiladi.

"Navoiyazot" AJ qat`iy tartib asosida faoliyat yurituvchi strategik ahamiyatga ega bo`lgan ishlab chiqarish obyekti hisoblanadi. Shu sababdan, ishlab chiqarish hududida qarovsiz hayvonlarning yashashi yoki bo`lishi taqiqlangan. Ularning tashkilotdagi harakatini cheklash, hududda tartib o`rnatish maqsadida korxonalar talabnomasiga binoan shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari huzuridagi qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish bo`limlarining maxsus guruhi chaqirtirilib, hayvonlarning maxsus saqlash joylariga olib ketilishi amalga oshiriladi. Ammo, bu harakatlar ularning salomatligiga zarar yetkazishi yoki o`ldirilishiga yo`l qo`yilmagan tarzda bajarilishiga qat`iy rioya etiladi. Bu jarayonlar Alohida qo`riqlash batal`oni, Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi bo`limi hamda Obodonlashtirish va ko`kalamzorlashtirish sexi vakillari tomonidan qat`iy nazoratga olinadi.

Xabarlarda ko`rsatilgan sana, ya`ni 3-noyabr kuni "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatiga qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish uchun maxsus guruh chaqirtirilmagan, videolavhadagi maydon «Navoiyazot» AJdan tashqaridagi hudud bo`lib, unga shaxsiy avtotransport vositalari kirib chiqishi taqiqlanmagan. Lavhadagi avtomobil ham korxonaga tegishli emas. Hozirda kuzatuv kamerasidagi tasvirlarda aks etgan holat yuzasidan o`rganish olib borilmoqda.

"Navoiyazot" AJ hayvonlarga ozor berilishi yoki ularga nisbatan shavqatsiz munosabatda bo`linishini qoralaydi. Bunday holatlarga korxonada aslo yo`l qo`yilmaydi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**